

**FARG'ONA VODIYSIDA NEFT SANOATINING SHAKLLANISH
TARIXINI YORITISHDA ARXIV MANBALARIDAN FOYDALANISH**

Xusnida Ergasheva,

O'zbekiston Milliy universiteti

O'zbekiston tarixi kafedrasи tayanch doktoranti

E-mail: ergasheva.xusnida@bk.ru

Farg'ona vodiysida neft sanoatining rivojlanish tarixini arxiv manbalari asosida o'rganilishi natijasida ushbu sohani to'liq va mazmunli yoritish imkoniyati yuzaga keladi. Arxiv xujjalarda aks etgan ma'lumotlar tarixni o'rganishdagi asosiy manba hisoblanadi. Shu sababli har bir davrni va har bir sohasini o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib yoritish mumkin bo'ladi. Jumladan, neft sanoati tarixini o'rganishda ham o'z ahamiyatiga ega hisoblanadi.

Yoqilg'i energetikasi hisoblangan neft qadimdan inson ehtiyojlari uchun foydalanib kelingan. Neft qadimdan shimoliy Kavkaz, Mesopotamiya, Misr, Birma, Malayziya Xitoy, Ruminiya, shu jumladan O'zbekistonning Farg'ona vodiysi va boshqa bir qancha mamlakatlarda qazib olingan hamda turli maqsadlarda foydalanilgan. Farg'ona vodiysida neft qazib olish va qayta ishslash sanoati XIX asrning o'rtalaridan boshlab, Qo'qon xonligida yashaydigan mahalliy hunarmandlar, tadbirkorlar tomonidan sanoat darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, XX asr boshlariga kelib ushbu sohaga bo'lgan e'tibor yanada ortib bordi. Buning natijasida neft sanoati yuksaldi.

XX asr boshlariga kelib jahon bozorida neftga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi natijasida 1908 yilda Eronda, 1910 yilda Meksikada, 1932 yilda Baxraynda, 1938 yilda Quvayt va Saudiya Arabistonida neftni burg'ulash orqali qazib olish yo'lga qo'yilgan[1]. Arxiv xujjalarni o'rganish natijasida bu jarayon yurtimizda oldinroq amalga oshganligini aytish mumkin. Eng birinchi neft koni va neft sanoati Farg'ona vodiysida bo'lganligini aytishimiz mumkin. Farg'ona vodiysida neft borligi qadim zamonlardan ma'lum bo'lgan. Milloddan avvalgi IV asrda Aleksandr

Makedonskiyning Hindistonga yurishida Farg'ona vodiysidagi Maylisoyda yer betida sizib turgan neftni ko'rganligi va uni o'z ehtiyoji uchun ishlatganligi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi.

Farg'ona vodiysining xalqlari qadim zamonlardan beri neftdan tayyorlangan mahsulotlardan foydalanib kelgan. Tibbiyat ilmini yaxshi bilgan tabiblar yerning tabiiy chuqurliklariga to'lib qolgan qora tusdagi moyli suyuqlikni dori-darmon sifatida foydalanib kelishgan. Kishilar uzoq joylardan kelib chuqurlikdagi xom tozalanmagan neftni idishlariga to'ldirib olib ketishgan va qichima hamda bot kasalliklariga dori sifatida ishlatib davo topganlar[2].

Farg'ona vodiysida neft sanoatining shakllanishi xonliklar davriga borib taqaladi. XIX asrning o'rtalaridan boshlab, mahalliy hunarmand va tadbirkorlar tomonidan neft quduqlaridan ibtidoiy usullarda chelak va cho'michlar yordamida neftni qazib olingan[3].

XIX asr o'rtalarida Qo'qon xonligida ko'plab hunarmandlik an'analari rivoj topgan. Hunarmandlar tomonidan yaratilgan mahsulotlar ichki va tashqi savdoda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Qo'qon xonligida hunarmandchilikning bir nechta turlari mavjud bo'lib, ular tomonidan yaratilgan mahsulotlar Markaziy Osiyo va Sharq mamlakatlarida mashhur bo'lgan[4]. Xonlikda yashagan hunarmandlar tabiat in'om etgan tabiiy resurslaridan oqilona foydalanib, hunarmandchilik an'alarini rivojlantirib borgan. Xonlik davrida Farg'ona vodiysida "nafti", "qora nefti" (qora neft) deb nomlangan astarlik matolar tayyorlangan. "Nafty-i rasmi" (oddiy nafti) "nafti beka sali" kabi matolar ham bo'lgan. "Nafti" matodan xonzodalarga so'zana, beklarga to'n tikishda foydalanilgan. "Nafti" matodan masalan, 1872 yili Sulton Murodbek uchun joynomozning astarligi hamda paypoqlar to'qilgan. Sulton Murodbek xonlikdagi Marg'ilon viloyatining begi bo'lgan[5].

Neftdan harbiy maqsadlarda ham keng foydalanib borilgan. Dushman tomonidan qamal qilinganlar hujum qilayotganlarning ustiga yonib turgan neft moyini uloqtirib, o'zlarini himoya qilganlar. O'q-yoylarga neft mahsulotlari surib yondirib, dushmanga xujum qilganlar[3. – 9-b.]. Bundan ko'rinish turibdiki kishilar neft mahsulotlaridan samarali foydalanib kelishgan.

XIX asr o'rtalariga kelib neft sanoati yuza keldi, ya'ni neftdan kerosin ajratib olish yo'lga qo'yildi. Ajratib olingan kerosindan tunda xonani yoritish uchun foydalanilgan. Kerosin mahsuloti o'sha vaqt uchun ma'lum bo'lgan barcha lampa moylar ichida eng arzon hamda qulay moy hisoblangan. Shu sababli neftdan kerosin ajratib olish ishlari keng yo'lga qo'yilgan[6]. Mahalliy hunarmandlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar xonlikda yashaydigan aholining ehtiyojlari uchun balki tashqi savdoda ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Xonlikda yashaydigan hunarmandlar, tadbirkorlar neft buloqlaridan samarali foydalanib borishgan.

Rossiya imperiyasi tomonidan xonliklarni bosib olish jarayonida o'lkani boshqarish va idora etish uchun tashkil etilgan Turkiston general gubernatorligi davrida neft konlarini ijara berish va undan foydalanish jarayonlari yo'lga qo'yilgan. 1884 yilgacha bo'lgan davrda o'lkadagi tabiiy boyliklar haqida Turkiston general gubernatorligida aniq ma'lumotlar bo'limganligi qayd etilgan. Shuning uchun Turkiston general gubernatori 1884 yil 11 oktyabr kuni Farg'ona va Sirdaryo viloyat gubernatorlariga "Tog'-kon ishlari bo'yicha statistik ma'lumotlar yetkazish haqida xat chiqaradi" [7]. Bu xatga javob berish maqsadida, Farg'ona viloyati harbiy gubernatori ilk marotaba 1885 yil 4 may kuni general-gubernatorga 1885 yil uchun ma'lumotlar jo'natganligi arxiv materiallarida qayd qilingan[7. – 9-v.].

Turkiston general-gubernatorligi huzurida tashkil qilingan tog'-kon ishlari bo'yicha bir gurux tog'-kon muhandislari o'lkamizning tabiiy boyliklarini o'rgangan. O'rganilgan natijalarga ko'ra tog' muhandislari Farg'ona viloyati bo'yicha 25 ta neft konlari mavjud bo'lib, ulardan 3 tasi xususiyashgan va qolganlari foydalanilmay kelinayotganligini ma'lum qilgan[8]. Shundan ko'rinish turibdiki, Farg'ona vodiysida aniqlangan neft konlaridan aholi keng foydalanib kelgan. Neft sanoati XIX asrning o'rtalaridan boshlab aholi tomonidan qo'l mehnati asosida shakllanib borgan.


XIX asrning 80-yillarda Farg'ona vodiysida neft qazib olish va qayta ishlash sanoati boshlang'ich holatda bo'lgan. 1880-1883 yillarda Farg'ona viloyati hududida joylashgan Qamishboshidagi Lokan deb nomlangan 4 ta neft qudug'i qazilgan. Qazib olingan quduqlarning qoldiqlari hozirgi kunga qadar saqlanib

qolgan. Quduqlar zarbali usulda qazilgan bo'lib, ularning chuqurligi 36,2 metrgacha, kengligi 219 mm (8 dyum) gacha yetgan. Dastlabki quduqlardan 5 tonnadan 12 tonnagacha neft qazib olingan[9].

Farg'ona vodiysida va o'lkaning boshqa hududlarida joylashgan neft konlaridan foydalanish to'g'risida Turkiston general gubernatorligiga bir nechta arizalar kelib tushgan. Shunday mazmundagi ariza bilan 1882 yilning iyun oyida Rossiya imperiyasi qo'shinlarining kapitani A.D.German Farg'ona viloyatining Chimyon qishlog'iga tutash bo'lgan Mindon va Chuqur qishloqlarining yonidagi neft buloqlarida ish olib borish uchun yer so'rab general gubernatorga murojaat qilgan[10]. Uni murojaatiga binoan ko'p vaqt o'tmay kapitan A.D.Germanga Turkiston general gubernatorligi tomonidan ruxsatnomasi yozib berildi[11]. Shundan so'ng Farg'ona viloyati boshqarmasi tomonidan 1882 yil 12 iyul kuni kapitan A.D.Germanga Chimyon hududining Jarqo'ton qishlog'i yaqinidagi neft konlarida ishslash uchun № 6310 tartib raqami bilan qayd etilgan ruxsatnomasi berilgan[12]. Ushbu ruxsatnomasi asosida Chimyon hududida joylashgan neft konlaridan neft qazib olish ishlari yo'lga qo'yildi. 1882 yili Mindon va Chuqur qishloqlari yonlarida joylashgan Miskon va Jarqo'ton konlaridan chuqurligi 24-32 gaz (21-27 metr), keladigan neft quduqlaridan kuniga 1,6 tonnagacha neft olinib o'sha vaqtida tashkil qilingan kerosin zavodiga keltirilgan. Tashkil qilingan kerosin zavodi 2 yil davomida ya'ni 1883 yilning yanvar oyidan to 1884 yilning dekabr oyigacha ishlagan. Kerosin zavodida yuqori sifatli kerosin olingan va u Marg'ilon shahridagi xususiy uylar, davlat muassasalarini yoritish uchun ishlatilgan. Chimyonda qazib olingan neftdan ajratib olingan kerosinning sifati yuqoriligi bilan ham ajralib turgan. Keyingi yillarda ya'ni, 1890 yillardan boshlab kerosinni chetga eksport qilina boshlangan. Birgina 1900 yilning o'zida 4192 rublda baholangan 21090 kilogramm kerosin chetga eksport qilingan hamda shu yilning o'zida chetdan vodiya kerosin keltirilmagan[13].

Farg'ona vodiysida neft sanoatining shakllanishi va rivojlanib borishi 1906 yili foydalanishga topshirilgan Farg'ona neftni qayta ishslash zavodining barpo etilishi bilan ham bog'liqdir. 1904 yilning sentyabr oyida Chimyondagi burg'ulangan neft

quduqlaridan birida Farg'ona viloyatida birinchi marta 278 metr chuqurlikdan neft fontani otilib chiqadi. Neft qudug'idan bir sutka davomida 130 tonnagacha neft qazib olingan. Neft fontanining otilishi neftni qayta ishlash zavodini barpo qilish uchun asos bo'ladi. 1904 yilning o'zida O'zbekistonda birinchi marta Farg'ona vodiysida neftni qayta ishlash zavodi Vannovskiy nomidagi temir yo'l stantsiyasi yaqinida qurilish ishlari amalga oshirila boshlandi. Bu zavodning qurilish ishlari bilan temir yo'l injeneri A.N.Kovalevskiy shug'ullangan. Ushbu zavod asosan kerosin va yoqilg'i mazuti ishlab chiqarishga mo'ljallangan. 1906 yilga kelib qurilish ishlari yakunlangan va zavod ishga tushirilgan. Farg'ona vodiysida tashkil qilingan neftni qayta ishlash zavodining qurilishi bir necha omillar asosida amalga oshirilgan. Jumladan, zavodning qurilishi mahalliy neftni qayta ishlash tarmog'ini tashkil qilish zarurati tufayli hamda Markaziy Osiyoda sanoat va transportni rivojlantirishni davom ettirish uchun yuzaga kelganligini aytishimiz mumkin. Ushbu zavodni ishga tushirilishi natijasida neft qazib olinishi va qayta ishlanishi rivojlanib bordi. Quyida Turkiston o'lkasida 1885 yildan 1917 yilgacha bo'lgan davrda 487,3 ming tonna neft qazib olinganligi aks ettirilgan diagramma keltirilgan[14].



Diagrammadan ko'rinish turibdiki Farg'ona vodiysida neftni qayta ishlash zavodi barpo etilganidan so'ng netfni qazib olish sur'atlari ortib bordi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Farg'ona vodiysida neft sanoatining shakllanish tarixini o'rganishda arxiv xujjatlarida aks etgan ma'lumotlardan

foydalananish orqali mavzuni to‘liq va mazmunli yoritish mumkin bo‘ladi. Tarixni haqqoniy, xolis yoritish uchun albatta arxiv xujjalarda aks ettirilgan ma‘lumotlardan foydalananish o‘z ahamiyatiga ega hisoblanadi. Shuningdek, Farg‘ona vodiysidagi neft sanoatini shakllanish tarixini yoritishda ham yuqorida keltirilgan arxiv xujjalarda aks etgan ma‘lumotlardan foydalanilgan holda mavzuni yoritishga harakat qilindi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati

1. Сулумов З.Х. Нефтяная промышленность Грозного в период Первой мировой войны. Каспийский регион: политика, экономика, культура № 1 (50). 2017 г. URL: https://www.elibrary.az/docs/JURNAL/jrn2017_387.pdf (Murojaat sanasi: 12.02.2022)
2. Abdullaev X.M. O‘zbekiston yer osti boyliklari sotsializm xizmatida. –T. 1949. 14 b.
3. Muhidov A.R., Tojiev T.T. O‘zbekistonning qora oltini. – T. Fan, 1972. – 9-10 b.
4. Bobobekov H. Qo‘qon tarixi. –T. Fan, 1996. – 100-b.
5. Jamolxoji I.N. Farg‘ona vodiysida neft sanoatining shakllanish va rivojlanish tarixi (1860-1917 yy.) tarix fanlari nomzodlik dissertatsiya ishi. –T. 2004. 42-b.
6. Brod. I.O. SSSRning yer osti neft va gaz boyliklari. – T. 1956.3-b.
7. O‘zbekiston Respublikasi milliy davlat arxivI I-1-fond, 15-ro‘yxat, 414-ish, 5, 9-v.
8. O‘zbekiston Respublikasi milliy davlat arxivI I-717-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 32-v.
9. Ergashev I., Abdullaev G‘.S., Qodirov M.X., Xolismatov I.X. Neft va gaz konlari geologiyasi. –T. Sharq, 2008. 18 b.
10. O‘zbekiston Respublikasi milliy davlat arxivI I-1-fond, 15-ro‘yxat, 365-ish, 14 v.
11. O‘zbekiston Respublikasi milliy davlat arxivI I-19-fond, 1-ro‘yxat, 23033-ish, 4-v.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari

12. O'zbekiston Respublikasi milliy davlat arxivi I-1-fond, 15 ro'yxat, 414-ish, 12-v.
13. Обзор Ферганской области за 1900 год. Нов Маргелан: Ферган.област. Правл., 1901, С.54-55.
14. Музапаров Ш. Культура и быт узбеков-нефтяников Ферганской долины.: диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. –Т. 1967. С. 26-27.